

## "Qorabayir yilqichilik majmuasiga tashrif"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4194-son qarori bilan O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi tashkil etildi. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida Qorabayir zotli otlarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha majmua faoliyat ko'rsatmoqda.



Mamlakatimizda yilqichilik va ot sportini ommalashtirish uchun shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mazkur sport turi bo'yicha yurtimizni xalqaro sport maydonlarida munosib ravishda tanitish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 19-may kuni filial jamoasi hamda faol talabalari Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida Qorabayir zotli otlarni yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha majmuasiga tashrifi amalga oshirildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**